

## DOMINANT TREMATODOZLARNING TURLARI VA ULARNING HAYVONLARDAGI KLINIK BELGILARI

Xosilova G.A.

*Qarshi Davlat universiteti, Zoologiya kafedrasida assistenti,  
Qarshi, Uzbekistan  
xosilova86@mail.ru*

**Annotatsion:** *Nowadays, at a time when the number of the world's population is increasing year by year, ensuring food security is becoming one of the most important issues facing humanity. Including in our Republic, in order to satisfy the population's demand for meat and dairy products, it is important to identify and combat various diseases of domestic and wild animals. This article provides detailed information about the types of trematodes found in domestic and wild animals and their clinical symptoms.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-son qarorida mamlakatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, bu orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mazkur sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishni tashkil etish asosiy maqsad qilib qo'yilgan [1].

Hozirgi davrda insoniyat oldida bir qancha muammolar vujudga kelmoqda. Ulardan biri oziq-ovqat bilan bog'liq muammodir. Jahon aholisining soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Bugungi kunga kelib sayyoramiz aholisining soni 7 mlrd ga yaqinlashib qoldi. Har bir kishi normal hayot kechirishi uchun bir kecha-kunduzda 100-120 g oqsil istemol qilishi zarur. Vaholanki, ko'pchilik aholining iste'mol qiladigan kunlik oqsili 50-60 g dan oshmaydi. Inson hayoti uchun zarur bo'lgan yog'li, uglevodli oziqalarning yetishmasligi ham sezilmoqda [2].

Shu sababli bugungi kunda Respublikamizda yetishtiriladigan go'sht va sut mahsulotlariga bulgan talab ham oshib bormoqda. Bu esa qishloq xo'jalik hayvonlarining sog'lom bo'lishi va har xil kasalliklardan himoya qilinishi lozimligini talab etadi. Bundan tashqari ushbu hayvonlarda uchraydigan kasalliklarlar haqida nafaqat mutaxassislar, balki barcha aholini xabardor bo'lishi va kasalliklarga qarshi kurash choralarini bilishi foydadan holi bo'lmaydi [3].

Hozirgi paytda trematodalarning 5000 dan ortiq turi mavjud, shulardan qariyb 50% i baliqlarda qolganlari esa boshqa umurtqalilarda parazitlik qiladi. Odamlarda ularning 30 ga yaqin turi uchraydi. Trematodalar o'z xo'jayinlarining hazm organlarida, jigar va jigar yo'llarida, qon tomirlarida va boshqa ichki organlarda parazit holda yashaydi. Trematodalarning ko'pchiligi bargsimon shaklga ega. Ammo ular orasida noksimon, ipsimon shaklga ega bo'lganlari ham uchraydi. Trematodalarning tana uzunligi 0,1 mm dan 10 -15 sm gacha yetadi [4].

Fassiolyoz – uy va yovvoyi juft tuyoqli hayvonlarning o'tkir yoki surunkali kechuvchi kasalligi. Kasallik qo'zg'atuvchisi bilan odamlar ham zararlanishi mumkin. Invaziyaning kechishi va uning klinik belgilari parazitlik qiladigan fassiolalar soniga, yoshiga, turiga, hayvonning fiziologik holatiga, saqlanish va oziqalanish sharoitlariga va boshqa qator omillarga bog'liq bo'ladi [5].

Kasal hayvon jigar to'qimalarida parazitlik qiluvchi yosh fassiolalar undagi qon tomirlarini va to'qimalarni buzadi, o'sish jarayonida esa jigarda ko'plab yaralar hosil qiladi, modda almashinuvining so'ngi mahsulotlari bilan organizmni zaharlaydi. Ko'z shilliq pardalari oqaradi, qorin bo'shlig'iga ko'p miqdorda qon zardobi yig'ilishi natijasida hayvonning qorin qismi osila boshlaydi. Qorin qismini qo'l bilan yuqoriga ko'targanda, suyuqlik borligi seziladi. Hayvonning ishtahasi pasayib, sust harakat qila boshlaydi va fassiolyozning o'tkir holda kechishi hayvonlarning to'satdan nobud bo'lishiga ham olib kelishi mumkin [6].

Dikroselioz - mayda va yirik shoxli hayvonlarning hamda ba'zi yovvoyi kavsh qaytaruvchilarning surunkali kasalligi bo'lib, uni jigar o't yo'llarida va o't qopida parazitlik qiluvchi trematoda chaqiradi. Trematodoz maymun va odamlar o'rtasida ham uchraydi.

Hayvon jigarida parazitlik qiluvchi dikroseliy miqdori hayvonning yoshiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Hayvon qanchalik uzoq muddat yashasa, shuncha ko'proq reinvaziyaga uchraydi va uning jigarida esa parazitlar miqdori oshib boradi. Kasallik ham shuncha og'ir o'tadi. Dikroseliozda kasallik belgilari uncha xarakterli emas. Hayvon kuchli zararlanganda (10-15 ming nusxa) oriqlash, ko'krak sohasida shishlar paydo bo'lishi, ovqat hazm qilish jarayonining buzilishi va mahsuldorlik pasayishi, ba'zan hatto o'lim holatlari kuzatiladi. Yosh hayvonlar jigarida parazitlar miqdori 100 dan 5000 gacha, kasallikning kechishi subklinik shaklga o'tadi [7].

Paramfistomatozlar – uy va yovvoyi kavsh qaytaruvchilarning o'tkir yoki surunkali kechuvchi kasalligidir. Kasallik qo'zg'atuvchisi Paramphistomata kenja turkumiga mansub bo'lib, gelmintning voyaga yetgan shakllari oshqozon oldi bo'limlarida (katta qorinda, ba'zan to'r qorinda), yosh trematodalar esa shirdon va ingichka ichakning shilliq pardasi ostida parazitlik qiladi.

Kasallik o'tkir va surunkali shaklda kechadi. O'tkir paramfistomatoz 1,5-2 yosh hayvonlarda (ko'proq buzoqlarda) kuzatiladi va trematodalarning ichak va shirdonning shilliq pardalarida migrasiya qilish davriga to'g'ri keladi. Hayvonlarda ishtaha yo'qoladi, holsizlanadi, uzoq vaqt yotadi, ko'zga ko'rinadigan shilliq pardalari qonsizlanadi. Ich ketish va ich qotishi almashib turadi. Surunkali paramfistomatozni voyaga yetgan gelmintlar chaqirib, trematodalarning oshqozon oldi bo'limlarida parazitlik qilishidan kelib chiqadi. Kasallikning bu shaklida

oshqozon oldi bo'limlari atoniyasi kuzatiladi, hayvonlar keskin oriqlaydi, ko'proq yotadi, sigirlarning sut mahsuloti kamayadi [8].

Shistosomoz - Hayvonlar shistosomozi yigirmaga yaqin tur sut emizuvchi-larning trematodozi bo'lib, u ayrim jinsli trematodalarning ichak tutqichlari va jigar vena qon tomirlarida parazitlik qilishi oqibatida kelib chiqadi.

Shistosomalar yopiq tizimda parazitlik qilib, qon tomirlarini o'z tuxumlari va modda almashinuvining so'ngi mahsulotlari bilan to'ldiradi. Serkariyalar organizmga kirishi va migratsiya qilishi, tuxumlarning to'qimalardan o'tish davrida organizmga mexanik ta'sir etadi. Parazitlarning modda almashish mahsulotlari esa hayvon organizmiga toksik ta'sir ko'rsatadi.

Mayda shoxli havonlarni tajriba sharoitida *Schistosoma turkestanicum* bilan zararlab ko'rish orqali, kasallik bir necha bosqichda kechishi aniqlangan [9].

Kasallikning dastlabki bosqichida dermatit, umumiy giperemiya, tana haroratining ko'tarilishi, puls va nafas olishi tezlashuvi kuza-tilib, shistosomoz serkariozi bilan xarakterlanadi. Ushbu o'zgarish-lar hayvonlar zararlangandan keyin 10-12 kun ichida kuzatiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097- sonli farmoni.
- 2.Shakarboyev E.B., Xosilova G.A., Azimov D.A., Jumamuratov J.E. Uy va yovvoyi kavsh qaytaruvchi hayvonlar dominant trematodozlari va ularga qarshi kurash chora-tadbirlar/ Amaliy tavsiyanoma. – Qarshi: «Intelлект» nashriyoti, 2023. – 45 bet.
- 3.Xosilova G.A., Shakarboyev E.B. Qashqadaryo viloyatida qoramollar gelmintofaunasi// Хоразм Маъмун академияси. – Хива, 2023 й. – № 9\1. – Б. 20-23.
- 4.Азимов Ж.А., Шакарбоев Э.Б., Голованов В.И., Акрамова Ф.Ж., Исакова Д.Т., Салимов Б.С., Изатуллаев З.И., Маматов Ш.С. Қишлоқ хўжалик ҳайвонлари ва паррандаларнинг трематодозларига қарши кураш чора-тадбирлари бўйича тавсиялар. – Тошкент, 2006. – 50 бет.
- 5.Хосилова Г.А., Шакарбоев Э.Б. Қашқадарё вилояти уй кавш қайтарувчилари гельминтлари// ҚарДУ хабарлари. – Қарши, 2023. – Махсус сон (63). – Б. 79-83.
- 6.Хосилова Г., Исмаилова Г. Положительное и негативное значение моллюсков в балансе природы. Научный прогресс, 2021. – 2 (5), С. 397-400.
- 7.Шакарбоев Э.Б., Жумамуратов Ж.Э., Хосилова Г.А. Трематодофауна позвоночных узбекистана// Основные материалы международной научно-практической конференции «Сохранение биоразнообразия горных экосистем в условиях изменения климата» посвященной 80-летию института биологии нан кр №1 иб нан кр. – Бишкек, 2023. – Б. 45-51.
- 8.Шакарбоев Э.Б., Хосилова Г.А., Жумамуратов Ж.Э., Трематоды млекопитающих Узбекистана// Узбекский биологический журнал. – Ташкент, 2023. – Б. 21-24.
- 9.Шакарбоев Э.Б., Жумамуратов Ж.Э., Хосилова Г.А., Хуразов С.Ж. Гельминты домашних парнокопытных животных северо-западного региона Узбекистана// Флора Исследование живой природы Кыргызстана. – Бишкек, 2022. – №1. – Б. 35-38.
- 10.Abdikayumovna, X. G. (2023). Mazkur maqolada Respublikamizdagi suv omborlarda uchraydigan mollyuskalarning turlari, yashash sharoitlari, tuzilishi, faunasi, ekologiyasi, tarqalishi va inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 2(5), 78-81.
- 11.Бобоназаров, Г. Я., & Омонова, Н. Р. (2021). OZBEKISTONDA YIRIK SHOXLI QORAMOLLAR TERI OSTI OQRASI HYPODERMA BOVUS (DIPTERA) ORGANILISHIGA DOIR. Журнал Биологии и Экологии, 3(1).
- 12.Rahimovna, O. N. (2024). SPECIES COMPOSITION OF ECTOPARASITES OF CHICKENS IN CONDITIONS OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN. European science review, (5-6), 3-7.
- 13.Рахматуллаев, А. Ю., Давронов, Б. О., Норкobilova, З. Б., & Омонова, Н. Р. (2021). Фауна Дождевых Червей В Узбекистана. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 310-314.
- 14.Карабекова, Д. У., Исакова, С. А., & Остащенко, А. Н. (2019). К ЭКОЛОГО-ФАУНИСТИЧЕКОМУ ИССЛЕДОВАНИЮ ГЕЛЬМИНТОВ ГРЫЗУНОВ (RODENTIA) ЧУЙСКОЙ ОБЛАСТИ. Исследование живой природы Кыргызстана, (1-2), 51-56.
- 15.kizi Norkobilova, Z. B., Rakhmatullayev, A. Y., & ogli Boyjigitov, O. D. (2023). PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION. World of Scientific news in Science, 1(3), 5-14.
- 16.Toshov, O. J. (2021). BIOTSENOTIC RELATIONS OF REPTILES ANIMALS IN THE DESERT ECOSYSTEMS OF THE SOUTHERN REGION OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (4-1 (83)), 423-425.
- 17.Тошов, У. Ж., & Самадова, М. П. (2021). КАШКАДАРК ВИЛОЯТИНИНГ ЧУЛ ЭКОСИСТЕМАЛАРИДА РЕПТИЛИЯЛАРНИНГ БИОЦЕНОТИК АЛОЦАЛАРИ. Журнал естественных наук, 2(1).
- 18.Djumayevich, T. U. (2019). The cycles of the development of the reptile helminthes and the ecology of their population. Вестник науки и творчества, (2 (38)), 79-82.
- 19.Abdikayumovna, X. G. (2023). Mazkur maqolada Respublikamizdagi suv omborlarda uchraydigan mollyuskalarning turlari, yashash sharoitlari, tuzilishi, faunasi, ekologiyasi, tarqalishi va inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 2(5), 78-81.

---

---

20.Raximovna, O. N., Yadgarovich, B. G., & Qizi, I. Z. I. (2024). UY PARRANDALARI EKTOPARAZIT BO'G'IMOYOQLILARIDAN MATERIAL YIG'ISH VA METODIKASI. In The World Of Science and Education, (20 сентябрь БН), 3-6.